

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-204-6

O‘ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda

PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI5-10

TEXNIKA FANLARI

Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek

5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI 11-18

Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin

ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI 19-27

TARIX FANLARI

Ergasheva Mohichexra

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA

TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL 28-31

Oralov Dostonbek

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY

JARAYONLARGA TA'SIRI 32-35

IQTISODIYOT FANLARI

Арипова Анна

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ

ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ 36-40

Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ 41-48

Авдошкина Олеся

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ

ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ 49-56

Azamatov Otabek

PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED

SOLUTIONS 57-61

Eraliyev Sardorjon

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY

USULLARI 62-64

Isomuxamedov Akbarjon

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

VA TAHLIL QILISH 65-67

FILOLOGIYA FANLARI

Mamatova Feruza

ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK

TURLARI 68-73

Yuldasheva Xurshida

O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO

MISOLIDA 74-76

<i>Abduvaliyeva Kamola</i> “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI	77-82
---	-------

GEOGRAFIYA FANLARI

<i>Abdirayimova Ozoda</i> SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	83-86
--	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Alimjonov Fayozbek</i> LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI	87-91
---	-------

<i>Muradullayeva Sevinch</i> SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	92-96
---	-------

<i>Abdullaeva Sabokhat</i> ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS	97-105
---	--------

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona</i> TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH	106-108
---	---------

<i>Разикова Дилфуза</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ	109-112
--	---------

<i>Salimova Bakhora</i> TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS	113-117
--	---------

<i>Bakhronova Mahliyo</i> “DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH”	118-123
---	---------

<i>Bekmuradova Gulnoza</i> TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA ILMIY-METODIK ASOSLARI	124-129
--	---------

<i>Rahimov Javohir</i> DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI	130-133
--	---------

<i>Юсупова Сабохат</i> ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА	134-137
--	---------

FILOLOGIYA FANLARI**ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK TURLARI****Mamatova Feruza Maxammadovna**

O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti

Ingliz tilshunosligi kafedrası dotsenti, PhD

E-mail: feruzamakhammadovna@gmail.com

Tel: +998 97 705 10 18

Annotatsiya. Ushbu maqolada antroposentrik yondashuv doirasida antropofenomenlar tahlil qilinadi. Ular inson tafakkuri va til o'zaro ta'sirida shakllanuvchi ijtimoiy-madaniy hodisalar sifatida qaraladi. Asosiy e'tibor antropofenomenlarning lingvokognitiv, lingvomenta, dinamik va statik turlariga qaratilgan. Lingvokognitiv yondashuv orqali inson ongida shakllanuvchi bilimlar va tushunchalarning tildagi ifodalanish usullari ochib beriladi. Lingvomenta yondashuv esa madaniyat va milliy tafakkur doirasida til va ong birligini o'rganadi. Dinamik antropofenomenlar vaqt mobaynida o'zgaruvchan bo'lsa, statik turlari barqaror va an'anaviy shaklga ega. Tadqiqotda bu toifadagi birliklarning kommunikativ, semantik va madaniy xususiyatlari tahlil etilib, ularning lingvistik va kognitiv jarayonlardagi o'rni aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Antropofenomen, lingvokognitiv yondashuv, lingvomenta model, dinamik fenomen, statik fenomen, til va tafakkur, antroposentrizm.

ANTHROPOPHENOMENA: LINGUOCOGNITIVE, LINGUOMENTAL, DYNAMIC AND STATIC TYPES**Mamatova Feruza Makhmadovna**

National University of Uzbekistan

Faculty of Foreign Philology

Associate Professor of the Department
of English Linguistics, PhD

Abstract. This paper explores anthropophenomena within the framework of anthropocentric linguistics, focusing on their linguocognitive, linguomenta, dynamic, and static dimensions. Anthropophenomena are understood as language-mediated manifestations of human experience, reflecting the interaction between cognition, culture, and communication. The linguocognitive aspect examines how knowledge and conceptual structures are formed and verbalized through language. The linguomenta approach focuses on the mental representations rooted in national and cultural worldviews. The study distinguishes dynamic anthropophenomena, which evolve over time under sociocultural influence, from static anthropophenomena, which remain relatively stable across generations. Special attention is paid to the role of anthropophenomena in meaning construction, cultural identity, and conceptual categorization. By analyzing various examples, the paper highlights how language functions as a mirror of human consciousness and cultural values. This multidisciplinary investigation contributes to a deeper understanding of the human factor in linguistic and cognitive processes.

Key words: Anthropophenomena, linguocognitive, linguomenta, dynamic phenomena, static phenomena, cognitive linguistics, cultural worldview, conceptualization, human factor, anthropocentrism, mental representation

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-12>

Kirish

Inson tabiati bilan bog'liq bo'lgan, lekin til va tafakkur (kognitsiya) nuqtayi nazaridan qaralgan hodisa. U insonning voqelikni qanday idrok etishi, anglashi va tushunchalar tizimida aks ettirishi hamda bularning tilda qay tarzda ifodalanishini ko'rsatadi. Biz taklif qilayotgan ushbu terminga, yani lingvokognitiv antropofenomena (keyinchalik LKAF) biz quyidagicha ta'rif bermoqchimiz: "Lingvokognitiv antropofenomen – tilga singib, dunyoning lisoniy manzarasining bir qismiga aylangan ijtimoiy, madaniy yoki psixologik hodisa haqidagi aqliy (kognitiv) tasavvurdir. Bu tasavvur tilda mustahkamlanib, insonning fikrlash tizimida o'z aksini topgan bo'ladi". Shu borada, lingvokognitiv antropofenomenning asl mohiyatini tushunish maqsadida, ushbu formulani taklif qilamiz: "Inson tabiatining namoyon bo'lishi, ongdagi mental in'ikos + verballashuv (lisoniy ifoda) = lingvokognitiv antropofenomen". N.A.Sergiyenko taklif qilgan lingvomenta antroposfera taribiga kiruvchi fenomenlarni esa biz **lingvomenta antropofenomenlar** deb nomlashni joiz deb topdik va ularni lingvomenta antroposferaning to'laqonli "a'zosi", tashkil qiluvchisi deb hisoblaymiz. Shu o'rinda lingvomenta antroposfera va uning bir qismi sifatida tilda aks etuvchi lingvomenta antropofenomenlarga (keyinchali matnlarda **LMAF**) batafsil to'htalib o'tsak.

Metod va tahlil

"Lingvomenta antropofenomen" va "lingvokognitiv antropofenomen" larinig farqi, yaqinlik jihatlarini, ular o'rtasidagi aniq chegara mavjud. Ular o'rtasidagi asosiy o'xshashlik bu asosan ularning ikkisi ham insonni til orqali tasvirlashi, inson tabiatining lisoniy ifoda shakli ekanligi, olamning lisoniy manzarasini tahlil qilishda qo'llanilishi, ma'lum ibora yoki maqollarda o'zaro kesishishi, uyg'unlashishi mumkin: masalan, rus tilidagi "на душе легко" iborasi ham *ruhiy tajriba*, ham *madaniyatda muhrlangan* tushuncha. LMAF bu his-tuyg'u, tasvir va holat bo'lsa, lingvokognitiv antropofenomen - sxema, konsept, strukturadir, ya'ni lingvomenta - ko'proq insonning tilda nimani qanday his etishi va boshidan o'tkazishiga doir tushuncha, lingvokognitiv esa - insonning til yordamida o'zini va boshqalarni qanday idrok etishi, ya'ni "tafakkur insonni qay tarzda ko'rishi" haqidagi qarash. N.A.Sergiyenkoga ko'ra lingvomenta antroposferani integratsiyalashgan tahlil nuqtai nazaridan o'rganish tadqiqot ufiqlarini kengaytiradi, chunki bu yondashuv lingvistik tahlil orqali nafaqat insonning dunyoni anglashidagi lingvokognitiv mexanizmlarni aniqlashga, balki tilda mujassam bo'lgan dunyoqarashning milliy-madaniy xususiyatlarini ham kashf etishga imkon beradi. Bundan tashqari, antroposferani lingvomenta tuzilma sifatida tadqiq etish an'anaviy lingvomadaniy ma'nolarni saqlash va yangilarini yaratishni ta'minlovchi lingvokognitiv jarayonlarni tushunishga yaqinlashtiradi. Bu jarayonlar har qanday lingvomadaniyatning o'ziga xos qolipini shakllantirib, uning asosini tashkil etadi [1; 81].

Natija va takliflar

Quyida "Ishonch, moda (urf), iroda, turizm, maslahat, intuitsiya (ichki sezgi), tavakkal, sabr, donolik, iftixor, umid, faxr, liderlik kabi yana boshqa antropofenomenlar misolida uch mezonga asoslanib biz taklif qilayotgan kategorizatsiyalarni jadval shaklida aniqroq ko'rsatib berimishni joiz deb topdik:

Jadval 1

Antropofenomenlarnig turli mezonlarga ko'ra klassifikatsiyasi

Vaqt davomida o'zgaruvchanlik mezonlari		Ma'lumotni aqliy qayta ishlashning yo'nalishi va darajasi mezonlari		Ijtimoiylashuv manbasi va ichki o'zlashtirish darajasi	
Dinamiklik dominant AF	Statiklik dominant AF	LMAF	LKAF	Ijtimoiy-madaniy jihatdan dominant AF	Ijtimoiy-psixologik jihatdan dominant AF
<i>turizm</i>	<i>ishonch</i>	<i>iroda</i>	<i>turizm</i>	<i>turizm</i>	<i>sabr</i>
<i>iftixor</i>	<i>donolik</i>	<i>Intuitsiya (ichki sezgi)</i>	<i>maslahat</i>	<i>sharaf</i>	<i>tavakkal</i>
<i>liderlik</i>	<i>qadr-qimmat</i>	<i>sabr</i>	<i>donolik</i>	<i>liderlik</i>	<i>iroda</i>
<i>maslahat</i>	<i>sharaf</i>	<i>umid</i>		<i>maslahat</i>	<i>Intuitsiya (ichki sezgi)</i>
<i>Intuitsiya (ichki sezgi)</i>	<i>Jins (gender)</i>	<i>iftixor</i>		<i>qadr-qimmat</i>	<i>umid</i>
<i>tavakkal</i>	<i>Sog'inch</i>		<i>moda (urf)</i>	<i>moda (urf)</i>	<i>donolik</i>
<i>sabr</i>	<i>muhabbat</i>		<i>liderlik</i>	<i>iftixor</i>	<i>ozodlik</i>
<i>umid</i>	<i>iroda</i>			<i>Informatsiya (ma'lumot)</i>	<i>ishonch</i>
<i>ozodlik</i>				<i>Ta'lim</i>	<i>Mas'uliyat</i>
<i>Mas'uliyat</i>				<i>Axloq-odoblari</i>	
<i>Sog'liq</i>				<i>Til (odam tili)</i>	
<i>Ta'lim</i>				<i>Sog'liq</i>	
<i>moda (urf)</i>		Kognitiv unsurga ega lingvomentalar antropofenomenlar (aralash (kognitiv-mental))		Kategoriylar "chegasida" joylashgan antropofenomenlar (bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy-madaniy, ham ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega hodisalar):	
<i>Mas'uliyat</i>					
Ikki tabiatli antropofenomenlar: statik va dinamik holatlari birlashgan					

	<i>Ishonch, tavakkal, sharaf, qadr-qimmat, umid, iftixor, donolik</i>	<i>, iftixor, qadr-qimmat, umid, donolik, liderlik, tavakkal, maslahat.</i>
<i>Ishonch, iftixor, umid, donolik, qadr-qimmat, sharaf, liderlik</i>		

Demak, sanab o'tilgan antropofenomenlarning ayrimlarini har doim ham faqat bir toifaga - ijtimoiy-madaniy yoki ijtimoiy-psixologik, faqat dinamik yoki statik, faqatgina lingvokognitiv yoki lingvomental toifaga qat'iy ravishda kiritish mumkin emas. Buning sababi shundaki, insonning ko'plab fenomenlari bir vaqtning o'zida ham madaniy kelib chiqishga, ham psixologik kechinmaga ega bo'ladi. Ya'ni, ular tashqi me'yoriy tarkibiy qism bilan ichki ruhiy dinamikani o'zida mujassam etadi. Masalan, "ishonch" barqaror holat (chuqur e'tiqod) sifatida qabul qilinsa-da, u dinamik tarzda o'zgarishi mumkin (ishonchni yo'qotish, ishonchni mustahkamlash) - bu faol ichki jarayondir, qolaversa, aynan "ishonch" ham lingvokognitiv va lingvomental, ham ijtimoiy-madaniy-psixologik kategoriya hisoblanadi. Yana bir misol sifatida, turizm kategoriyasini olsak: turizm yorqin madaniy-ijtimoiy antropofenomen namunasi hisoblanadi, chunki u jamiyat me'yorlari, global madaniy amaliyotlar va iqtisodiy-ijtimoiy institutlar doirasida shakllanib, faoliyat yuritadi. U jamiyat tomonidan targ'ib qilinadigan yoki rag'batlantiriladigan qadriyatlar va xulq-atvor andozalari tizimiga asoslanib, bo'sh vaqt, harakatchanlik, iste'mol va madaniy almashinuv haqidagi jamoaviy tasavvurlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, turizm dinamik AFdir, chunki u sayohat davomida shaxsning ko'chishi, o'zaro aloqasi, vaziyatlarning o'zgarishi va shaxsiy o'zgarishi bilan bog'liq. Turistik faoliyat vaqt va makonda harakatlanishni, shaxsning maqomi va rollarining vaqtinchalik o'zgarishini o'z ichiga oladi, bu esa uni yaqqol ifodalangan jarayonli hodisaga aylantiradi. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, turizm lingvokognitiv hodisa sifatida namoyon bo'ladi, chunki u tilda tushunchalar, metaforalar, freymlar va ssenariylar orqali ifodalanadi. Masalan, nutqda u "o'zini anglash yo'li", "taassurotlar izlash", "kundalik hayotdan qochish" kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lib, sayohatni idrok etishning kognitiv sxemalarini aks ettiradi. Shunday qilib, turizm shunchaki ko'chish sifatida emas, balki dunyo lisoniy manzarasiga kiritilgan, kognitiv jihatdan tuzilgan tajriba shakli sifatida tushuniladi. "Qadr-qimmat" antropofenomeni axloqiy tushuncha (barqaror) bo'lib, ammo u harakat orqali amalga oshirilishi yoki yo'qotilishi mumkin (*qadr-qimmatni saqlab qolish, qadr-qimmatni yo'qotish*) - bu uning namoyon bo'lish dinamikasidir. "Donolik" bir tomondan yakuniy natija va sifat bo'lib, o'zgarmas holatda namoyon bo'lsa, boshqa tomondan jarayon natijasi sifatida (donolikka erishish orqali) fikrlash va tajribaning rivoji bilan bog'liq bo'lishi mumkin. "Umid" esa emotsional-psixologik holat hisoblanib, madaniy ifoda shakllariga ega bo'ladi (diniy umid, kelajakka oid umumjamoaviy umidlar kabi).

Zamonaviy tilshunoslikda antropofenomenlar va lingvokognitiv antropofenomenlarni talqin etish til, madaniyat, kognitiv jarayonlar va ijtimoiy amaliyotlarning dunyoni idrok etish hamda muloqot strategiyalariga qanday o'zaro ta'sir ko'rsatishi va ta'sir qilishini tushunish uchun muhim mavzu hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda ushbu sohalardagi tadqiqotlar tilshunoslik, kognitiv fan, antropologiya, psixologiya va sotsiologiya kabi keng qamrovli ilmiy

yo'nalishlarni o'z ichiga olmoqda. Bu esa til hodisalarini inson madaniyati va ruhiyati nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Qolaversa, zamonaviy tilshunoslikda AFlar va lingvokognitiv antropofenomenlarni o'rganish fanlararo soha hisoblanadi. Bu yo'nalishda tilshunoslar til bilan dunyoni idrok etishning kognitiv, madaniy va antropologik jihatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq etadilar. Ushbu masalalar bo'yicha ilgari ish olib borgan yoki hozirda faoliyat yuritayotgan bir qator olimlarning ishlari va asarlari kelgusi izlanishlar uchun muhim manba bo'lishi mumkin.

“Antropofenomen” atamasi lingvistik adabiyotlarda keng tarqalmagan va uning qo'llanilishi juda tor doiradagi tadqiqotlar bilan cheklangan. Biroq, semiotika, antropologiya va madaniyat nazariyasi chorrahasida ishlaydigan ba'zi tilshunoslar, faylasuflar va madaniyatshunoslarning asarlariga murojaat qilish kerak. Masalan, Yuriy Lotman “antropofenomen” atamasiga yaqin talqinni keltiradi. “Феномен культуры” nomli maqolasida madaniyatni insonning dunyoni idrok etishi va talqin qilishiga xizmat qiladigan belgilar tizimi sifatida ta'riflaydi. U inson ongingning ikki tilliligiga alohida e'tibor qaratib, bunda so'z tili va ramziy tizimlar kabi turli belgi tizimlari bir vaqtning o'zida faoliyat yuritishini ta'kidlaydi. Bu holat yangi ma'nolar va madaniy amaliyotlarni shakllantirishga zarur bo'lgan ichki semiotik xilma-xillikni yuzaga keltiradi. Xususan, mifologik ong davriylik va gomeomorfizm munosabati bilan tavsiflanadi, bu esa turli hodisalarning o'xshash deb qabul qilinishiga olib keladi. Afsonalar, marosimlar va boshqa ijtimoiy amaliyotlarni AFlar, ya'ni inson madaniy kodlardan foydalangan holda dunyoni anglaydigan va talqin qiladigan hodisalar shakllari sifatida ko'rib chiqish mumkin deb ta'kidlaydi [2; 34-45].

E.Yu.Vechkanova “Zamonaviy antropotsentrik paradigma doirasidagi kognitiv tilshunoslik” [3; 113] nomli maqolasida kognitiv tilshunoslikning ong, til va dunyoni idrok etish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni qanday o'rganishini tahlil qiladi. Bu yondashuv antropofenomen tushunchasiga yaqin hisoblanadi.

J.B.Satkenova “Antropotsentrik paradigmda kognitiv tilshunoslikning o'rni va funksiyalari” [4; 153] nomli maqolaning hammualliflari kognitiv tilshunoslik tilni inson ongi va idrokining in'ikosi sifatida qanday o'rganishini muhokama qiladilar. Bu yondashuv antropofenomen g'oyalariga mos keladi.

O'zbek tadqiqotchilaridan M.Toshpo'latova [5] “Феномен личности в антропоцентрической лингвистике” nomli maqolasida lisoniy shaxs, uning olam haqidagi tasavvurlarini til vositasida anglashi va talqin qilishi masalalarini ko'rib chiqadi. Garchi “antropofenomen” atamasi bevosita ishlatilmasa-da, maqolada insonning dunyoni til orqali idrok etishi va talqin qilishi bilan bog'liq jihatlar tadqiq etilgan. M.Djusupov [6; 37-52]. “Antropotsentrik maqollar lingvokontrastiv va lingvometodik muammo sifatida” nomli maqolasida antropotsentrik maqollarni til nazariyasi, lingvokontrastiv tilshunoslik va chet tilini o'qitish metodikasi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Maqollar xalq tarixi, madaniyati va tafakkurining hodisasi sifatida ko'rib chiqiladi. R.I.Majidova “Turli tizimli tillardagi antropotsentrik maqollar lingvistik aksiologiyaning bir jihati sifatida” nomli maqolasida turli tizimli tillardagi paremiologik dunyo manzarasi asosida milliy-madaniy o'ziga xoslikni o'rganadi. Antropotsentrik maqollar insonning atrofdagi voqelikni va sodir bo'layotgan hodisalarni o'z shaxsiy nuqtai nazaridan idrok etishini ko'rsatadi [7].

Xulosa

Demak, AFlar til, ong, jamiyat, ruhiyat va madaniyatning kesishgan nuqtasi hisoblanib, aynan kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya sohalarida ular eng chuqur ilmiy tahlil va tushunchaga ega bo'ladi hamda Uning mohiyati - til, madaniyat va tafakkur orqali anglangan insoniy namoyon bo'lishlar - tilshunoslik va gumanitar yo'nalishlarda faol o'rganilmoqda. Biz esa tadqiqotimizning keyigi fasllarida antropofenomenlarni lingvokognitiv va kingvomenta kategoria sifatida kontsensualizatsiya va kategorizatsiya jarayonlarini ishlab chiqamiz.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Сергиенко Н.А. Лингвоментальная антропосфера как фактор категоризации лингвокультур : дис. ... д-ра филол. наук : 5.9.8 – Теоретическая, прикладная и сравнительно-сопоставительная лингвистика. – Сургут, 2023. – С. 81.
2. Лотман Ю.М. Избранные статьи в трех томах.- Т.I Статьи по семиотике и топологии культуры – Таллин, “Александра”, 1992 С.34-45
3. Vechkanova E.Yu. Cognitive linguistics within the modern anthropocentric paradigm / E.Yu. Vechkanova // International Research Journal. — 2021. — №11 — P.113.
4. Саткенова Ж.Б., Элимтаева Л.Т., & Эмиров, Э. Ж. Роль и функции когнитивной лингвистики в антропоцентрической парадигме. Eurasian Journal of Philology Science and Education, — 2016 — С. 153.
5. <https://interscience.uz/index.php/home/article/view/3849/3607>
6. Джусупов М. Антропоцентрические пословицы как лингвоконтрастивная и лингвометодическая проблема. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 5 (46). — С. 37-52.
7. <https://interscience.uz/index.php/home/article/view/2036/2154>

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

**O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari.** – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.